

TARJIMONLIKDA DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Mirzaboyeva Umida

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti,
1-bosqich magistri

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarjimonlar duch keladigan asosiy lingvistik, madaniy va texnik qiyinchiliklar hamda ularning yechimlari tahlil qilinadi. Texnologiyalarni samarali qo'llash, madaniyatlararo bilimlarni oshirish va amaliy tajriba orttirish orqali tarjimonlik sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** tarjimonlik, lingvistika, madaniyat, texnologiya, muammo, yechim.*

***Abstract.** This article analyzes the main linguistic, cultural, and technical challenges faced by translators and their solutions. It examines opportunities to improve the quality of translation through the effective use of technology, increased intercultural knowledge, and practical experience.*

***Key words:** translation, linguistics, culture, technology, problem, solution.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются основные лингвистические, культурные и технические проблемы, с которыми сталкиваются переводчики, и пути их решения. Рассмотрены возможности повышения качества перевода за счет эффективного использования технологий, увеличения межкультурных знаний и приобретения практического опыта.*

***Ключевые слова:** перевод, лингвистика, культура, технология, проблема, решение.*

Tarjima nafaqat til o'g'irish jarayoni, balki madaniyatlar, g'oyalar va bilimlar o'rtasida ko'prik yaratadigan murakkab san'atdir. Bugungi globallashuv davrida tarjimonlik nafaqat xalqaro aloqalarni rivojlantirishda, balki ilm-fan, texnologiya va diplomatiyasohalarida ham muhim o'rin egallaydi. Biroq tarjimonlik jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, tarjimonlar turli sohalarda muammolarga duch keladilar. Ushbu maqolada tarjimonlar uchraydigan asosiy muammolar (lingvistik, madaniy, texnik, tashkiliy) va ularni hal qilish yo'llari haqida batafsil so'z yuritiladi.¹

1. Lingvistik muammolar.

Tarjimonlar ko'pincha tilning grammatik va leksik nozikliklari bilan bog'liq muammolarga duch keladilar. Masalan, har bir tilning o'ziga xos murakkabliklari va ma'nosi turli kontekstlarda o'zgaradigan ko'p ma'noli so'zlar tarjima jarayonini qiyinlashtiradi.

Masalan: Ingliz tilidagi **“Break the ice”** iborasi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, *“muzni sindirish”* degan ma'no hosil qiladi. Biroq, aslida bu ibora *“suhbatni boshlash”* ma'nosini anglatadi. Bu muammoga yechim sifatida kontekstni to'g'ri tushunish uchun maxsus lug'at va qo'llanmalardan foydalanish, tarjima amaliyoti davomida kontekstual

¹ S.Bassnett. Translation Studies. 4th edition. Routledge, 2013

tarjimaga asoslangan mashqlarni bajarish. Kompyuter yordamida tarjima vositalarini (CAT-tools, masalan, SDL Trados yoki memoQ) ishlatish samarali tarjima qilishda eng yaxshi usul sifatida targ'ib qilinadi.²

Tarjimonlar madaniyatlararo tafovutlar tufayli tushunmovchiliklarga duch keladilar. Har bir madaniyat o'ziga xos ma'no, urf-odat va tarixiy o'ziga xosliklarga ega. Bularni tarjima qilishda xatoliklar matnning asl ma'nosini buzib qo'yishi mumkin. Yapon tilidagi "Omotenashi" atamasi mehmondo'stlikning chuqur falsafasini anglatadi. Uni boshqa tillarga oddiygina "mehmondo'stlik" deb tarjima qilish noto'g'ri talqinga olib kelishi mumkin. Mahalliy madaniyatni chuqur o'rganish. Madaniy masalalarda ekspertlar bilan maslahatlashish. Madaniyatlararo kompetentsiyani oshirish uchun maxsus treninglarda ishtirok etish tarjimonlarni shu kabi muammolarga duch kelishini oldini oladi.

Ayniqsa, texnik matnlarni tarjima qilish alohida malakani talab qiladi. Tibbiyot, muhandislik va yuridik sohalardagi matnlar noto'g'ri tarjima qilinsa, katta muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun, tibbiyotda "**myocardial infarction**" (*yurak xuruji*) atamasini noto'g'ri tarjima qilish bemor hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. Bunday muammolarga yechim sifatida, texnik mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash, texnik tarjima bo'yicha ixtisoslashgan treninglarda qatnashish, maxsus terminologik bazalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy tarjima jarayonida, shubhasiz, texnik muammolarga duch kelamiz. Misol uchun mashina tarjimasi (masalan, Google Translate, DeepL) matnlarni tez tarjima qilishi mumkin, ammo u murakkab kontekstual ma'nolarni tushunmaydi. Misol uchun ingliz tilidagi "**You are pulling my leg**" iborasini mashina tarjimasi "*Siz mening oyog'imni tortyapsiz*" deb tarjima qiladi. Bu esa iboraning asl – "*Siz hazillashyapsiz*" – ma'nosini noto'g'ri tushunishga olib keladi. Bunga yechim sifatida, mashina tarjimasi va inson tarjimasi bilan to'g'ri ishlashdir.

Tarjimonlar uchun zamonaviy vositalarni o'zlashtirish bo'yicha treninglar o'tkazish. Kompyuter dasturlaridan samarali foydalanishni o'rganish sifatli tarjimaga olib keladi. Bundan tashqari, tashkiliy muammolar: Ko'pincha tarjimonlar katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt ichida tarjima qilish talabiga duch keladilar. Bunday holatlar stress va sifat pasayishiga olib keladi. Vaqtni to'g'ri rejalashtirish va tarjima jarayonini bosqichma-bosqich tashkil qilish. Hamkorlikda ishlash uchun tarjima jamoalarini shakllantirish. Tarjima jarayonini yanada samarali qiladi. Noto'g'ri tarjima oqibatlari esatarjima jarayonida birgina xato katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, xalqaro shartnomalar yoki qonunlarda noto'g'ri tarjima yuridik nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun 2009-yilda NASA tomonidan yuborilgan hujjatning noto'g'ri tarjimasi tufayli loyiha moliyalashtirilmagan edi. Bu voqea tarjima sifatining qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima – bu faqat tilni o'zgartirish emas, balki madaniyatlarni bog'laydigan murakkab jarayon. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, inson tarjimonining ijodkorligi, hissiyoti va bilimiga bo'lgan ehtiyoj o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Kelajakda yuqori malakali tarjimonlar o'z bilim va tajribalarini oshirish orqali

² A.Pym, A.Perekrestenko, B.Starink. Translation Technology and its Teaching. Intercultural Studies. Tarragona. 2006 P

madaniyatlararo muloqotga yanada ko'proq hissa qo'shishlari lozim. Tarjima – bunafaqat kasb, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantiruvchi muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Pym, A.Perekrestenko, B.Starink. Translation Technology and its Teaching. Intercultural Studies. Tarragona. 2006. –P. 6.
2. R.Bozorova. Tarjima san'ati va uning muammolari. Центр научных публикаций. BuxDu. 2023.
3. S.Bassnett. Translation Studies. 4th edition. Routledge, 2013.
4. R.Bozorova. Tarjima san'ati va uning muammolari. Центр научных публикаций. BuxDu. 2023.